

SMTI direktori Olmaotadagi xalqaro ilmiy anjumanda ishtirok etdi



21 iyun kuni Olmaota shahrida “Etakchilikning 30 yilligi” mavzusida xalqaro ilmiy anjuman bo’lib o’tdi. Tadbir Qozog’iston Respublikasi birinchi Prezidenti kutubxonasi, Qozog’iston Respublikasi birinchi Prezidenti fondi va Olmaota hokimiyati ko’magida tashkil etildi. Ushbu tadbir mustaqil Qozog’iston tarixida muhim sana - Qozog’iston Respublikasining Birinchi Prezidentini N.A.Nazarboyevning mamlakat eng oliy lavozimiga kirishganiga 30 yil to’lganligiga bag’ishlandi.

Tadbirda Qozog’iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart To’qayev, Qozog’iston Respublikasining Birinchi Prezidenti - Yelbasi N.Nazarbaev, taniqli xorijiy va Qozog’iston jamoat va davlat arboblari, tadqiqotchilar va ekspertlar ishtirok etdi.

Yig’ilishda SMTI direktori E.Aripov ishtirok etdi. O’z nutqida u o’zbek-qozoq munosabatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdi.

Uning so’zlariga ko’ra, Yelbasi va O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning sa’y-harakatlari natijasida ikki tomonlama munosabatlarda yangi davr ochildi. Ikki mamlakatning printsipial pozitsiyasi Orolni Qutqarish Xalqaro Jamg’armasini tashkil etishga imkon berdi. O’zbekiston va Qozog’iston Afg’onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish masalalari bilan ham yaqin hamkorlikni yo’lga qo’yдилar.

